

AMERIKA QO'SHMA SHTATLARIDA MUSIQA TA'LIMI

МУЗЫКАЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ В СОЕДИНЕННЫХ
ШТАТАХ АМЕРИКИ

MUSIC EDUCATION IN THE UNITED STATES OF AMERICA

*Yo'Ichiboyeva Risola**Andijon davlat pedagogika instituti**Ijtimoiy va amaliy fanlar fakulteti**Musiqa talimi yo'nalishi 2-kurs talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Amerika Qo'shma Shtatlarida musiqa madaniyati va musiqa ta'lim tizimi haqida ma'lumotlar beriladi. Bundan tashqari AQSHda ma'lum reja va dasturlar yo'qligi, maktabgacha ta'lim muassalarida musiqa mashg'ulotlarini qay tarzda tashkil etilishi, boshlang'ich va yuqori maktablarda esa musiqa darslarida o'quvchilarning bilim va salohiyatidan kelib chiqqan holda darslar o'tilishi va musiqiy asarlarni o'rganishda bolalar uchun qiziqarli va samarali bo'lgan metodlar haqida ham ma'lumotlar keltirilib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Musiqa madaniyati, musiqa ta'limi, metod, Suzuki usuli, Kodaly usuli, Orff Shulverk usuli, xor, band, orkestr.

Аннотация: В статье представлена информация о музыкальной культуре и системе музыкального образования в США. Кроме того, в ней представлены сведения об отсутствии в США конкретных планов и программ, об организации занятий музыкой в дошкольных образовательных учреждениях, о том, как организовано преподавание музыки в начальной и средней школе с учётом знаний и способностей учащихся, а также о методах, которые интересны и эффективны для детей при изучении музыкальных произведений.

Ключевые слова: Музыкальная культура, музыкальное образование, метод, метод Сузуки, метод Кодая, метод Орфа-Шульверка, хор, ансамбль, оркестр.

Abstract: This article provides information about the music culture and music education system in the United States. In addition, it provides information about the lack of specific plans and programs in the United States, how music classes are organized in preschool educational institutions, how music classes in elementary and high schools are taught based on the knowledge and abilities of students, and methods that are interesting and effective for children in learning musical works.

Keywords: Music culture, music education, method, Suzuki method, Kodaly method, Orff Schulwerk method, choir, band, orchestra.

KIRISH

Har bir mamlakatning musiqa tarbiyasi g'oyaviy-siyosiy jihatdan xalqning ijtimoiy tuzumiga xizmat qiladi. Har bir xalqning musiqa tarbiyasi metodikasi pedagogikaning didaktik qonuniyatlariga va shu milatning musiqa madaniyati, tili va madaniy an'analariga asoslanadi. Shu bilan birga musiqa tarbiyasining tuzilishi, tizimi va ilmiy-metodik yutuqlari boshqa millatning ma'rifiy madaniyatiga ham ijobiy ta'sir etadi. Davlat maktablari bilan birga shaxsiy maktablar, kollejlari va oliy ta'lim dargohlari mavjud bo'lib ularda turlicha darajada estetik tarbiyani amalga oshirishda o'qituvchiga keng ijodiy erkinlik berilgan. O'qituvchi o'z davlatining maktab sharoiti, imkoniyatlari va o'quvchilarning bilim darajasiga qarab dasturga o'zgartirishlar kiritishi mumkin.

Hozirgi kunda musiqa madaniyatiga nafaqat O'zbekistonda balki butun dunyo bo'ylab e'tibor berilmoqda va keng imkoniyatlar ochilmoqda. Bunga misol qilib ko'cha san'atini yurtimizda va xorijda keng ommalashganini aytish mumkin. Ko'chalarda jonli konsertlar namoyish qilish, milliy kuy qo'shiqlarni kuylash va ijro qilish orqali yurtdoshlarimiz, san'at ixlosmandlari bilan birgalikda xorijdan kelgan sayyohlarning ham e'tiborini tortmoqda va bu esa o'z navbatida yurtimiz ma'daniyatini va uning urf-odatlarini keng yoyilishiga sabab bo'lmoqda. Hattoki Yunesko qoshidagi musiqiy tarbiya xalqaro jamiyati ham (ISME) o'z faoliyatini rivojlantirmoqda. Bu jamiyat o'z oldiga dolzarb va ezgu maqsadlarni qo'yib, butun jahonda bolalar va o'smirlarni musiqiy tarbiyalash, jarayoni yosh avlodni axloqiy, intellektual va estetik jihatdan shakllatirishda qudratli vosita sifatida o'rganadi.

Har bir mamlakat bolalarga musiqiy ta'lim berishda o'zining mentaliteti va ta'lim olayotgan bolalarning salohiyatidan kelib chiqib turlicha yondashadilar. Shu qatori Amerika Qo'shma Shtatlarida ham bolalarga musiqiy ta'lim berishda o'ziga yarasha metodlari va usullari bor hisoblanadi. Xorijiy mamlakatlarda yagona o'quv reja va dasturga amal qilinmaydi. Shu qatori Amerika Qo'shma Shtatlarida ham. Musiqa ta'limi «estetika» sifatida o'tiladi.

Amerika Qo'shma Shtatlari maktablarining birinchi-to'rtinchi sinflarida ashula darsi har kuni 20-30 minut hajmida o'tkaziladi. Darslarni umumiy o'quv fanlari bo'yicha dars beradigan o'qituvchilar o'tkazadilar. Darslarda bolalar musiqa sadolari ostida o'ynaydilar, qo'shiq va ibodat qo'shiqlarini ijro etadilar, turli usuldagi mashqlarni bajaradilar. O'rta maktabda musiqa darslari dars jadvaliga har doim kiritilmaydi, aksariyat hollarda ular darsdan tashqari, vaqtda o'tkaziladi [1].¹ Darsdan keyingi vaqtda xor, orkestr, ansambllardan keng foydalaniladi. Maktab o'quvchilari uchun doimiy ravishda, oldindan maktablarga xabar berib, simfonik kontsertlar ham o'tkaziladi. Musiqa mashg'ulotlari jarayonida turli musiqa cholg'u asboblari-kichik

¹ https://www.edumusic.uz/musiqa_tarixi.html

baraban, uchburchak, musiqali qutichalardan foydaniladi. Uchunchi sinfdan boshlab turli orkestr cholg'ulari ijrochiligi o'rgatiladi, keyinchalik orkestr sozandalari birlashtirilib, maktab orkestr jamoasi tashkil qilinadi. Amaldagi musiqa ijrochiligiga alohida e'tibor beriladi. Turli turdagi (kichik cholg'u ansambl va kamer xor jamoasidan tortib to yirik simfonik orkestr va katta xorgacha) jamoalar tuzilib, bularning orasida turli xor jamoalari kontsert, kamer, madrigal, qizlar, o'g'il bolalar xor jamoalari o'z ifodasini topadi. AQSHning 6–12-sinflarida musiqa ta'limi juda rivojlangan va o'quvchilar uchun juda ko'p yo'nalishlar taklif qilinadi. Darslar amaliyotga yo'naltirilgan, ijrochilik, xor, orkestr, band va texnologik musiqa yo'nalishlaridan iborat. Umumta'lim maktablari musiqa o'qituvchilarini tayyorlash bilan kollej va universitetlar shug'ullanadilar. AQSh dagi Musiqa ta'limi sohasida aniq tizim va uslubiy bir xillik mavjud emas; o'quv muassasalarini davlat ham, shaxslar ham, turli kompaniyalar ham boshqaradiki, natijada beqarorlik va xilma-xillik vujudga keladi. Har bir shtatda o'zining maktab tizimi mavjud. Musiqa darslarining shakl va mazmuni, o'quv soatlari pedagoglar tomonidan belgilanadi; aksariyat hollarda, ular yetarlik professional ma'lumotga ega emaslar. Musiqa o'qituvchilarining yetishmasligi tufayli, ayniqsa quyi bosqichlarda, mamlakatning turli maktablarida yosh kompozitorlar pedagog sifatida faoliyat ko'rsatadilar; qayerda ularga ehtiyoj sezilsa va qayerda ularning musiqalari ijro etilsa, o'sha yerda ular o'z mahoratini namoyon etadilar. Natijada, maktabda ijro etish uchun o'ziga xos yagona repertuar vujudga kelib, o'quvchilar kompozitorlar bilan muloqot qilish imkoniga ega bo'ldilarki, bu narsa juda muhimdir. O'quv yurtlaridagi o'quv rejalari tuzilish va mazmuniga ko'ra bir-biridan farq qiladilar, shuning uchun bitiruvchilarning tayyorgarlik darajalari sezilarli darajada turlicha bo'ladi. Maxsus musiqa ta'limi o'qish muddati 4 yil bo'lgan kollejlarda boshlanadi, keyinchalik bir yil davomida musiqa magistri unvonini olish uchun o'qishni davom yettirish va yana 2 yil (jami 7 yil) musiqa doktori unvonini olish uchun o'qish mumkin. Kollejlarning 3 ta ijrochilik, musiqashunoslik va pedagogik turlari mavjud, ularda musiqa o'qituvchilari tayyorlanadi. AQSh da XIX asrdayoq tashkil topgan konservatoriyalar vaqt o'tishi bilan universitetlarga qo'shilib ketgan. Bundan kutilgan maqsad, ta'limni yaxshilashga intilish, yoshlarga nafaqat musiqali tayyorgarlikni berish, shuningdek ularning adabiyot, san'atning boshqa turlari bo'yicha bilimlarini kengaytirishdir [2]. ²AQSH musiqiy oliy ta'lim tizimi dunyodagi eng kuchlilaridan biri hisoblanadi. Eng mashhur konservatoriyalar: Juilliard School, Berklee College of Music, Eastman School of Music, Curtis Institute of Music.

Bilamizki har bir davlatda ta'lim olayotgan bolalarning salohiyatidan kelib chiqib musiqa o'rgatishning samarali usullari yaratiladi. AQSHda musiqa ta'limini samarali o'rgatish uchun bir qancha metodlar mavjud. Lekin ulardan quyidagi 3 tasi keng

² D. Soipova. "Musiqa o'qitish nazariyasi va metodikasi" o'quv qo'llanma. Toshkent-2009.

tarqalganlar sirasiga kiradi: Orff Schulwerk, Kodaly metodi, Suzuki metodi.

1. Orff Shulverk usuli musiqa, harakat, nutq va dramani uyg'unlashtirib, bolaning tabiiy o'yin tuyg'usini taqlid qilish uchun musiqa ta'limining rivojlantiruvchi yondashuvidir. Karl Orff va Gunild Kitman tomonidan ishlab chiqilgan ushbu usul taqlid, kashfiyot, improvizatsiya va kompozitsiya jarayoni orqali o'rganish, ksilofon va metallofonlar kabi asboblardan foydalanish va ijodiy ifodani rag'batlantirishga qaratilgan. Asosiy tamoyillar: Bolalarga yo'naltirilgan - yondashuv bolaning ehtiyojlariga asoslanadi va yoshligidan ularning musiqiy qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. Yaxlit va o'ynoqi: Darslar o'ynoqi, o'yinga o'xshash tuzilishdan foydalangan holda musiqani harakat, nutq va drama bilan birlashtiradi.

Jarayonga yo'naltirilgan: Orff Shulverk ishlash yoki qat'iy baholashdan ko'ra yaratish va kashfiyot jarayoniga urg'u beradi [3].³

Inklyuziv: Usul barcha ishtirokchilarni o'z darajasida muvaffaqiyatga erishishga va guruhning o'zaro ta'siriga katta e'tibor berishga undaydi. Yana bu usul to'rt bosqichli jarayonni o'z ichiga oladi. Bular: Taqlid: Talabalar o'qituvchi tomonidan taqdim etilgan ritm, ohang yoki harakat kabi musiqiy modelni aks ettiradi.

Izlanish: Talabalarga cholg'u asboblari yoki o'z ovozlari va tanalari orqali musiqiy g'oyalar bilan tajriba o'tkazish tavsiya etiladi. Improvizatsiya: O'quvchilar o'rganganlari asosida o'zlarining musiqiy materialini ixtiro qila boshlaydilar.

Kompozitsiya: Talabalar ko'pincha ilgari o'rganilgan elementlarga asoslanib, o'zlarining original musiqa qismlarini yaratadilar.

2. Kodaly usuli — bu Vengriyalik kompozitor Zoltan Kodaly tomonidan yaratilgan, qo'shiqqa asoslangan musiqa o'qitish usuli. Bu usulda musiqa savodxonligi, solfedjio, ritm va qo'shiq mashqlariga e'tibor qaratiladi va bolalar uchun musiqa o'rganishni qiziqarli, tabiiy va har kim uchun qulay qiladi. Asosiy g'oyalar: musiqani bolaning o'z ovozi orqali o'rganish, o'z milliy madaniyatining xalq qo'shiqlari bilan boshlash va musiqa ta'limini maktab dasturlarining asosiy qismiga aylantirish. Kodaly usuli asli kelib chiqishi Vengriya bo'lsa ham AQSH ta'limi ham bundan keng foydalanadi. Kodaly usulining asosiy tamoyillari: Musiqa o'rganishni ovozdan boshlash: Kodaly o'quvchilar musiqa elementlarini, masalan, nota balandligini va ritmini hissiyot orqali, ya'ni qo'shiq orqali o'rganishini ta'kidlagan. Qo'shiq o'rganish ichki eshitish va xotirani rivojlantiradi. Milliy va madaniy merosdan foydalanish: O'qitish uchun bolaning o'z madaniyatiga oid xalq qo'shiqlari ishlatiladi. Bu qo'shiqlar yordamida o'quvchi o'z madaniyatini o'rganadi va musiqa bilan chuqurroq bog'lanadi. Musiqa savodxonligini rivojlantirish: Solfej (sol-fa) va ritmik so'zlardan foydalaniladi. Keyinchalik, bola musiqani o'rganishda, solfej qo'l belgilari va boshqa mashqlar yordamida nota yozuvini o'rganadi. Musiqani asta-sekinlik bilan

³ T. Ortiqov. "Musiqa o'qitish metodikasi"

o'rgatish: Osondan qiyinga qarab boriladi. Avval musiqa tinglanadi, qo'shiq aytiladi, keyin esa uni yozish o'rganiladi. Harakatdan foydalanish: Ritm va harakatni birga o'rganish orqali musiqani his qilish osonlashadi. Xususan, yurish, yugurish va qo'llar bilan harakat qilish kabi mashqlar qo'llanadi.

3. Suzuki usuli – bu bolalarning musiqaviy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan mashhur usul bo'lib, uni 20-asrning o'rtalarida yapon skripkach-pedagogi Shinichi Suzuki asos solgan. Bu usulning asosiy mohiyati bolani juda yoshligidan musiqaga (avvaliga skripkaga) o'rab, ularga musiqani eshitib, undan keyin takrorlashni o'rgatishdir, xuddi bolaning o'z ona tilini o'rganishiga o'xshash tarzda. Metodning samaradorligi: O'rgatish usuli: Suzuki usuli bo'yicha o'qitishda bolalar musiqa tinglash va ijro etishni bir vaqtda o'rganadilar. Bu usulda o'quvchilar o'z-o'zidan musiqaviy savodxonlikni rivojlantiradilar. Musiqaviy rivojlanish: Suzuki usuliga ko'ra, har bir bola musiqaviy iste'dodga ega va uni o'z-o'zini rivojlantirish jarayonida o'z-o'zidan namoyon etishi mumkin. O'ziga xos xususiyatlari: Suzuki usuli, shuningdek, usulning boshqa o'qitish usullaridan ajralib turadigan o'ziga xos xususiyatlari ham mavjud. Metodda o'quvchining musiqaviy rivojlanishi, musiqa o'rganish jarayoni va musiqa ijrosi bilan uyg'unlashgan jarayonni o'rganishga qaratilgan. O'z-o'zini rivojlantirish: Bu usul bolalarda musiqa ijrosini o'rganish jarayonida o'z-o'zini rivojlantirishni ta'minlaydi, bu esa musiqa ijrochilik faoliyatida juda muhimdir.

Ushbu yuqorida keltirilgan metodlar ta'lim jarayoninig maktabgacha ta'lim va o'rta maktab bosqichida ko'proq foydalaniladi. AQSH o'rta maktablarida musiqa darslari ko'proq amaliyotga asoslangan holda olib boriladi. Darslarning 70–80 foizi amaliy faoliyatdan iborat: kuylash, chalish, tinglash, sahnalashtirish, ansambl bo'lib ijro.

Nazariya amaliy jarayon orqali beriladi. Katta guruhlarda emas, yo'nalishlar bo'yicha bo'linadi. Misol: 25 talik xor, 50 kishilik marching band, 12 kishilik jazz ansambl, 20 kishilik simfonik orkestr. Har bir o'quvchi o'z qiziqishiga ko'ra yo'nalishni tanlaydi.

XULOSA

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, AQSHda musiqa ta'lim tizimi bugungi kunda dunyodagi eng samarali va insonparvar ta'lim modellaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Uning muvaffaqiyati o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan yondashuv, pedagoglarning yuqori malakasi, ta'lim jarayonidagi psixologik qulaylik, tenglik tamoyili va maktabni ortiqcha baholash tizimidan xoli qilish orqali ta'minlangan. Eng muhimi, AQSH tajribasi o'quvchini raqobatga emas, balki shaxsiy rivojlanishga undovchi ta'lim muhitini yaratish bilan ajralib turadi. AQSHda musiqa ta'limi keng qamrovli, innovatsion va o'quvchilarning ijodiy salohiyatini har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan tizim sifatida shakllangan. Maktabgacha ta'limdan boshlab oliy ta'limgacha

bo'lgan barcha bosqichlarda musiqa faniga alohida e'tibor berilishi, zamonaviy texnologiyalar, turli janr va uslublarning o'quv jarayoniga tatbiq etilishi yoshlarning musiqiy savodxonligini yuksaltirishga xizmat qiladi. Shuningdek, davlat va nodavlat tashkilotlarining qo'llab-quvvatlashi, keng ko'lamli grant va dasturlarning mavjudligi iste'dodli yoshlarning imkoniyatlarini ochishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. https://www.edumusic.uz/musiqa_tarixi.html
2. D. Soipova. "Musiqa o'qitish nazariyasi va metodikasi" o'quv qo'llanma. Toshkent-2009.
3. G.M.Sharipova, D.F.Asamova, Z.L.Xodjayeva. "Musiqa o'qitish nazariyasi metodikasi va maktab repertuarlari". Oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari talabalari uchun o'quv qo'llanma. Toshkent-2014.
4. T. Ortiqov. "Musiqa o'qitish metodikasi"
5. G. Sharipova, Z. Xodjayeva. "Musiqa o'qitish metodikasi" darslik. Toshkent "NIF MSH" 2020.